


QIRQIM

Qirqim shartli tasvir bo'lib, u buyumning ko'zimizga ko'rinmaydigan ichki tuzilishini aniqlash maqsadida bajariladi. Ma'lumki, chizmalarda buyumlarning ichki ko'rinmaydigan chiziqlari shtrix chiziqlar bilan chiziladi. Bunda tutash va shtrix chiziqlarning bir yo'la chizmada chizilishi chizmani o'qishni qiyinlashtiradi va ko'pincha xatoliklarga olib keladi. Bunday holni bartaraf etish uchun shtrix chiziqlar ko'rinadigan kontur chiziqlar bilan almashtiriladi, ya'ni qirqim beriladi.

Qirqim deb biror buyumni bir yoki bir necha tekislik bilan fikran qirqqanda kesuvchi tekislikda hosil bo'lgan shakl bilan buyumning kesuvchi tekislik orqasida qolgan qismini proektsiyalanganda hosil bo'lgan tasvirga aytiladi. Qirqim, asosan buyumning ko'rinishlarida tasvirlanadi.

Qirqimning kesimdan farqi shundaki kesimda buyumning kesuvchi tekislik orqasida ko'rinib qolgan qismi chizilmaydi. 2.1-shaklda detal A tekislik bilan kesganda hosil bo'ladigan qirqim va kesim bir-biriga taqqoslab ko'rsatilgan.



2.1-shakl


Qirqim bir necha xossalarga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- Kesuvchi tekislikning soniga qarab oddiy va murakkab qirqim.
- Kesuvchi tekislikning gorizonta tekislikka nisbatan vaziyatiga ko'ra vertikal, gorizonta va qiya qirqim.


- Buyumning uzunasi yoki ko'ndalangi bo'yicha bajarilgan qirqim.
- Qirqimning to'liq bajarilishiga ko'ra to'liq va mahalliy (ayrim joy) qirqim.

Oddiy qirqim. Chizmada bitta kesuvchi tekislik bilan hosil bo'lgan qirqim

oddiy qirqim deyiladi. Oddiy qirqim kesuvchi tekislikning proyeksiya tekisligiga nisbatan joylashishiga qarab gorizontaal, vertikal va og'ma (qiya) qirqimlarga bo'linadi. Agar kesuvchi tekislik frontal proyeksiya tekisligiga parallel bo'lsa, frontal qirqim deyiladi. (2.2-shakl,a). Agar kesuvchi tekislik profil proyeksiya tekisligiga parallel bo'lsa profil qirqim deyiladi (2.2-shakl,b).




2.2 -shakl,a



2.2-shakl,b


Gorizontaal qirqim gorizontaal kesuvchi tekislik vositasida hosil qilinadi (2.3-shakl).



2.3-shakl

Frontal, profil va gorizontaal qirqimlar odatda olddan, chapdan va ustdan koʻrinishlar oʻrnida mos ravishda joylashtirib chiziladi. Qirqimlar bajarganda ham kesimdagi kabi yozuv va strelkalar qoʻyiladi va buyumning kesilgan yuzasi shtrixlanadi.


Mahalliy qirqim. Buyumning kichik bir qismi tuzilishini aniqlash maqsadida bajarilgan qirqim mahalliy (ayrim joy) qirqim deb ataladi. Mahalliy qirqim toʻlqinsimon tutash chiziq bilan chegaralangan boʻlishi zarur. Lekin bu chiziq tasvirning boshqa biror chizigʻi bilan qoʻshilib qolmasligi kerak. Agar chizmada simmetriya oʻqi biror kontur chiziq bilan ustma-ust tushib qolsa, u holda koʻrinish bilan qirqim qismlari ingichka toʻlqinsimon chiziq yordamida birlashtiriladi. 2.4-shaklda simmetrik buyumlarni toʻlqinsimon chiziqni qulay vaziyatlarda oʻtkazish hollari koʻrsatilgan.



2.4-shakl



Qirqim bajarishning alohida hollari. Baʼzan buyumning tashqi va ichki

tuzilishini bir vaqtning o'zida ko'rsatishga to'g'ri kelsa, ko'rishning bir qismi bilan qirqimning bir qismini birlashtirib chizish (tasvirlash) mumkin. Agar chizmada buyumning tasviri (ko'rinishi) simmetrik bo'lsa, ko'rinishning bir qismi (masalan, olddan ko'rinishi bilan frontal qirqim) birlashtirib tasvirlanadi (2.5-shakl). Shaklda olddan ko'rinishning bir qismi bilan frontal qirqimning bir qismini ingichka shtrix-punktir chiziq, ya'ni simmetriya o'qi birlashtiradi (2.5-shakl).



2.5-shakl

Ko'p buyumlarning qovurg'ani o'ziga xos konstruktiv elementlari bo'ladi (2.6-shakl). Bunday buyumlarning qirqimlarini bajarishda ularning oziga xos tomoni shundaki, kesuvchi tekislik qovurg'a bo'ylab kesganda ham kesim shakli shtrixlanmaydi. Ular detalning boshqa qismlaridan asosiy chiziq bilan ajratib ko'rsatiladi. 2.6-shaklda profil kesuvchi tekislik qovurg'ani kesib o'tgan, ammo profil qirqimda qovurg'a shtrixlanmagan va buyumning boshqa qismidan asosiy tutash chiziq bilan ajratilgan.



2.6-shakl

Chizmach